

Elektr ta'minoti va qayta tiklanuvchan energiya manbalari



Kafedra mudiri

Qodirov Dilshod Botirovich, PhD

Tel: 71 237-19-68

Email: d.kodirov@tiame.uz

“Elektr ta'minoti va qayta tiklanuvchi energiya manbalari” kafedrasini 2004 yil O'zbekiston Respublikasi Vazirlar maxkamasining “Qishloq va suv xo'jaligi uchun yuqori malakali kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish to'g'risidagi” 415-sonli qarorini bajarish maqsadida institutning 2004 yil 13.09 dagi 187-F buyrug'iga asosan Toshkent Irrigatsiya va melioratsiya intstitutining tashkiliy tuzilmasi ijrosida tashkil etilgan. Kafedra dastlab 1979 yil 15 dekabrda “Elektr yuritmalari va elektr energiyasini qo'llash” kafedrasidan “Qishloq xo'jaligida elektr energiyani qo'llash” nomi bilan ajralib chiqqan. Institut ilmiy kengashining qaroriga ko'ra 2001 yil 5 iyundan “Elektrotexnologiya” va “Elektr uskunalari ekspluatatsiyasi va ta'mirlash” nomi bilan ataldi. Kafedrada tashkil etilgan kundan 2004 yilgacha professor A.R.Radjabov xabarlik qilgan. 2004 yildan 2011 yilgacha dotsent A.S. Berdishev kafedraga mudirlik qilib kelgan. Kafedra a'zolari fakultetning ilmiy-tarbiyaviy faoliyatida faol ishtirok etib kelganlar. Kafedrada professorlar Radjabov A.R., Ismoilov M.I. Muxammadiyev A.M., Musabekov N.M., Muratov X.M. doktorlik dissertatsiyalarini muvaffaqiyatli himoya qilib, har birlari o'z ilmiy maktabini yaratganlar. O'sha yillarda yana kafedrada quyidagi olimlar t.f.n. dissertatsiyasini tayyorlab, himoya qildilar; M.M. Egamberdiyev, I.D. Toshev, I.N. Belokovskiy, M.I. Ibragimov, Sh.M. Muzafarov, A.D.Raxmatov, T.M. Bayzakov, N.T. Toshpo'lotov, B.Sh. Fayzullayev, A.J. Isoqov, O.T. Axmedov, A.Bakiyev, I. Nuritov, D.Raxmatov, Abdulla Said Marshad, Rabbabax A., May Van Xuan. Ular hozirda Respublikamizning turli muassasa va tashkilotlarida faoliyat ko'rsatib turibdilar. Kafedra tashkil qilingan paytidan buyon “Qishloq xo'jalik mahsulotlarini quritish, qayta ishlash va saqlash jarayonlarida elektrotexnologiya usullarini qo'llash” mavzusida ilmiy maktab hozirgi kunda ham Respublikamizda salohiyati yo'nalishlardan biri deb hisoblanadi. 2010 yil oxirida Primov Odil kandidatlik dissertatsiyasini muvoffaqiyatli himoya qildi va hozirda TJA kafedrasida ishlab turibdi. 2011 yil fevralda dos. Muzafarov Sh.M. o'zining doktorlik dissertatsiyasining dastlabki variantini fakultet ilmiy texnik seminarida ximoya qilib zarur tavsiyalar oldilar, ular yaqin kunlarda keyingi bosqichlardan ham muvoffaqiyatli o'tib, OAK da o'z tasdiqlarini olishlariga tilakdoshmiz. Muzafarov Sh.M. hozirgi kunda eng dolzarb mavzulardan biri bo'lgan “Havoni tozalash muammolari” bo'yicha ilmiy izlanishlar olib bormoqda. U o'zining havoni mayda chang va ifloslanishlardan tozalash filtrini paxta tozalash zavodlari uchun mos elektr impuls rejimlarini ishlab chiqilgan konstruksiyalari tavsiya qilingan. Hozirgi vaqtda elektrofiltrlarni ishlab chiqarishga joriy qilish ishlari olib borilmoqda. O'zbekiston

Respublikasi Prezidentining 2017 yil 25 maydagi PQ-3003-sonli qaroriga asosan kafedraning “Suv xo‘jaligida elektr ta‘minoti va elektr jixozlaridan foydalanish” nomi “Elektr ta‘minoti va qayta tiklanuvchi energiya manbalari”ga o‘zgartirildi.

Qishloq va suv xo‘jaligi energiya ta‘minoti fakulteti O‘qitiladigan fanlar Ilmiy
ishlar Tadqiqotchilar Hamkorlar Kafedra xodimlari To‘garaklar Dars jadvali Aloqa